

## **PROFESSIONAL TA'LIMDA CHET TILINI O'QITISH JARAYONIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

**Yunusov Dilshod Raxmatovich**

*Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Jizzax davlat pedagogika universiteti  
Umumiy pedagogika kafedrasи o'qituvchisi.*

**Xazratqulova Sanobar Saidmurod qizi**

*Abdulla Qodiriy nomidagi JDPU magistranti.*

**Annotatsiya:** Maqolaning maqsadi – professional ta'linda chet tilini o'qitishda zamonaviy texnologiyalarning mohiyati, turlari va ahamiyatini ko'rib chiqish. Ushbu mavzuning dolzarbliyi yangi avlod mutaxassislarini tayyorlashga alohida talablarining paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan ta'limdagi inqirozni bartaraf etish zarurati bilan bog'liq. Maqolada zamonaviy texnologiyalardan foydalanish usullari ko'rib chiqiladi va chet tilini o'qitishda ulardan foydalanish samaradorligi tahlil qilinadi. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanishdagi muammolarni aniqlash va ularni hal qilish mexanizmlarini shakllantirishga harakat qilinmoqda.

**Kalit so'zlar:** Innovatsiya, texnologiya, kommunikativ madaniyat, zamonaviy metod va usullar, ko'nikma, kreativ

Jahonning professional ta'lim tizimini modernizatsiyalash tajribalariga ko'ra, bilim, ko'nikma va malakaga asoslangan ta'lim evolyutsiyasining keyingi bosqichi sifatida hozirgi kunda evolyutsion trendda bo'lib turgan (CPE, CPD) hamda ta'lim natijalari (Learning Outcomes) asosida ishsizlikni kamaytirish, aholi bandligini ta'minlash, kambag'alchilikni qisqartirish, tadbirkorlik va daromad olish ko'nikmalarini shakllantirish va malakali kadrlarni ob'ektiv saralash tamoyillari asosida o'quvchilarning shaxsiy va kasbiy muhim sifatlarini (o'z-o'zini faollashtirish va namoyon qilish, kreativlik, kasbiy relevant ma'lumotlarni topish va ulardan samarali foydalanish) rivojlantirishga qaratilgan yangi professional ta'lim tizimini shakllantirish muammolarini tadqiq etishni taqozo qilmoqda.

Shu asosda Respublikamizda amalga oshiliyotgan keng ko'lamli islohotlar fonida ta'lim tizimida sezilarli yuksalish kuzatib borilmoqda, ko'lam va sifat jihatdan jiddiy tarkibiy o'zgarishlar yuz bermoqda. Shuningdek, xalqaro mehnat bozori talablari, integratsion jarayonlarning jadallahushi, raqamlashtirish, zamon talablariga mos malaka va ko'nikmalarga ega bo'lgan raqobatbardosh o'rta bo'g'in

mutaxassislarini tayyorlab borishni, kasb – hunar ta’limi sohasida yangi tizimni – xalqaro andozalarga mos bo’lgan **professional ta’lim tizimini** talab qildi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ta’lim sohasida tub islohotlarni amalga oshirish va zamonaviy professional ta’lim tizimini barpo etishning maqsad va ustuvor vazifalari, bir so‘z bilan aytganda **yangi missiyasi** belgilab berildi.

Ushbu missyaning mohiyati yangi sifat hamda formatda inson resurslarini rivojlantirish, yoshlarda ichki va tashqi mehnat bozori talab qilayotgan amaliy klassifikatsiyalarni shakllantirish, ularning mehrini, vatanga muhabbatini, xalqiga sadoqatini yuksaltirishdan iborat.

Yurtimizda chet tillarni o’qitilishida yangicha bosqich, yangicha davr boshlandi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning “Mamlakatimizda xorijiy tillarni o’rgatish bo’yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo’ladigan yangi tizimni yo’lga qo’yish vaqtি-soati keldi. Biz raqobatbardosh davlat qurishni o’z oldimizga maqsad qilib qo’yan ekanmiz, bundan buyon maktab, litsey, kollej va oliy o’quv yurti bitiruvchilari kamida 2 ta chet tilini mukammal bilishlari shart. Bu qat’iy talab har bir ta’lim muassasasi rahbari faoliyatining asosiy mezoniga aylanishi lozim”, degan gaplari fikrimizning yaqqol dalilidir. Chet tili darslarining o’qitilishi jarayonida ilg’or pedagogik texnologiyalarni, interfaol, innovatsion usullardan, kommunikativ-axborot vositalaridan foydalanish talab qilinmoqda. Respublikamizda chet tilining o’qitilishi, chet tili o’qituvchilarining bilim va ko’nikmalarini baholashning umumyevropa tavsiyanomalariga mos ravishda yangi usul va talablari ishlab chiqildi. Unga ko’ra professional ta’lim muassasalari o’quvchilari uchun darsliklar yaratildi. Ushbu talablarga mos ravishda o’quv xonalari ko’rgazmali quroollarva yangi axborot kommunikativ texnikalar bilan jihozlandi. Bunday yaratib berilayotgan shart sharoitlardan ruhlangan o’quvchilar orasida chet tili o’rganishga bo’lgan talab ham kundan kunga oshib bormoqda. Chet tili fani to’rt aspekt(o’qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish)gabo’linib, ularning har biri bo’yicha alohida tushuncha va ko’nikmalar berilmoqda. Ta’lim texnologiyalari, bu ta’lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishdir. Shuningdek, ta’lim jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalarini olib kirish orqali ta’lim sifati va samaradorligini oshirishni nazarda tutadi.

Professional ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan har bir pedagog zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalana olish mahoratiga ega bo’lishi bugungi kunning asosiy talabi hisoblanadi. Xususan, chet tilini o’rgatish jarayonida bunday axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning

bir qancha afzalliklari mavjuddir. Til o'rganish va o'qitishda zamonaviy texnologiyaning roli beqiyosdir. Texnologik vositalardan foydalanish chet tili o'rganishning har bir aspektida qo'l keladi. Masalan, tinglab tushunish uchun, albatta kompyuter, player, diskatarsiz bu jarayonni amalga oshirish mumkin emas. Tinglab tushunish til o'rganishning eng muhim qismlaridan biridir. Bunda o'quvchi bir paytning o'zida so'zlovchining talaffuzi, grammatik qoidalarga rioya qilganligi, so'z boyligi va uning ma'nolariga e'tibor berishi talab qilinadi. Ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda o'quvchilar ham axborot kommunikatsion texnologiyalarini yaxshi bilish va ulardan foydalana olishi muhim omil hisoblanadi. Chet tilini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o'rgatish va o'rganish eng samaraliusullardan biridir. Bu jarayonda, jumladan:


- kompyuterlardan foydalanganda o'quvchi chet tilidagi video roliklarni, namoyishlarni, dialoglarni kino yoki multfilmlarni ham ko'rishi ham eshitishi mumkin;
- chet tilidagi radio eshittirishlar va televiziniyadagi dasturlarni eshitish va tomosha qilish mumkin;
- ancha an'anaviy usul hisoblanadigan magnitafon va kassetalardan foydalanish;
- CD plejerlardan foydalanish mumkin. Bu texnik vositalardan foydalanish o'quvchilarning chet tilini o'rganishlari jarayonini qiziqarliroq va samaraliroq bo'lishini ta'minlaydi.

**Tadqiqot metodologiyasi:** Ta'lim texnologiyalari - bu ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishdir. Shuningdek, ta'lim jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalarini olib kirish orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Xususan, chet tilini o'rganishda bunday axborot-kommunikatsion texnoogiyalardan foydalanishning bir qancha afzalliklari mavjuddir. Til o'rganish va o'qitishda zamonaviy taxnologiyaning roli beqiyosdir. Texnologik vositalardan foydalanish chet tili o'rganishning har bir aspect (o'qish, yoish, tinglab tushunish va gapishtida) qo'l keladi. Masalan, tinglab tushunish uchun, albatta kompyuter, player, CD diskatarsiz bu jarayonni amalga oshirish mumkin emas. Tinglab tushunish til o'rganishning eng muhim qismlaridan biridir. Bunda o'quvchi bir paytning o'zida so'zlovchining talaffuzi, grammatik qoidalarga rioya qilganligi, so'z boyligi va uning ma'nolariga e'tibor berishi talab qilinadi. Ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda o'quvchilar ham axborot — kommunikatsion texnologiyalarini yaxshi bilish va ulardan foydalana olishi muhim omil hisoblanadi. Chet tilini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o'rgatish va o'rganish eng samador usullardan biridir.

Bu jarayonda, jumladan:

- kompyuterlardan foydalanganda o'quvchi chet tilidagi video roliklarni, namoyishlarni, dialoglarni kino yoki multfilmlarni ham ko'rishi ham eshitishi mumkin;
- chet tilidagi radio eshittirishlar va televideniedagi dasturlarni eshitish va tomosha qilish mumkin;
- ancha an'anaviy usul hisoblanadigan magnitafon va cassetalardan foydalanish;
- CD pleyerlardan foydalanish mumkin. Bu texnik vositalardan foydalanish o'quvchilarning chet tilini o'rganishlari jarayonini qiziarliroq va samaraliroq bo'lishini ta'minlaydi. Globallashuv jarayonida hayotimizni internetsiz tasavvur qilish qiyin. Chet tilini o'rganish va o'qitish jarayonida undan unumli foydalanishning eng samarali usullardan hisoblanadi. Internet orqali chet tilida so'zlashuvshilar bilan muloqot qilish imkoniyati paydo bo'ladi. E-mail orqali xat yozishish bilan yozish mashqini takomillashtirish mumkin.

Ta'lim jarayoniga zamonaviy — kommunikatsion texnologiyalarni olib kirish ulardan maqsadli va to'g'ri, unumli foydalanish, ular orqali o'quvchida chet tiliga bo'lgan qiziqishni orttirish, o'qitish samaradorligini oshirish eng muhim masala hisoblanadi. Bu orqali ta'limning innovatsion texnologiyalaridan foydalanishga imkoniyat tug'iladi va talab ortadi.



Ushbu sxemada, talabalarga chet tilini o'rgatish jarayonida bir necha usul va metodlar ko'rsatilgan. Aynan ushbu interfaol metodlardan foydalanish ta'lim sifati yaxshilanishiga va talabalar o'rtasida hurfikrlikni rivojlantirishga yordam beradi.

Professional ta'lim tizimi o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

- Hududlar va sohalar kesimida iqtisodiy taraqqiyotga munosib hissa qo'sha oladigan o'rta bo'g'in kadrlarni tayyorlash vazifasi;

- Davlatimiz yoshlarini malakali mehnat orqali o‘z faravonligini ta’minlashga o‘rgatish;

- O‘z mehnat faoliyatlariga, amaliyotlariga innovatsion va kreativ yondoshish, yaratuvchanlik, intellektual, madaniy va ma’naviy potensialni rivojlantirish kabi kompetensiyalarni shakllantirish metodologiyasini yaratish.

Shu kabi missiya, maqsadlarni ko‘zlab, Prezidentimiz 2019-yil 6-sentyabrdan “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo’shimcha chora – tadbirlar to‘g’risida”gi farmonni qabul qildilar. Ushbu farmon O‘zbekiston tarixida **yangi professional ta’lim tizimini** tashkil etishga asos bo‘lgan bo‘lsa, 2020 yil 24 – yanvarda yurtboshimiz o‘z murojaatnomasida “Joriy yildan boshlab, mutlaqo yangicha professional ta’lim tizimi yo‘lga qo‘yilib, kasb – hunar maktablari, kollejlar va texnikumlar tashkil etiladi” degan holda mazkur tizimning ahamiyatini yana bir bor alohida ta’kidladilar<sup>30</sup>.

Bu tizimda iqtisodiyotning barcha tarmoqlari barobarida chorvachilik, tadbirkorlik, kichik biznes, oilaviy biznes, tomorqa biznesi, baliqchilik, qurilish, xizmat ko‘rsatish, parrandachilik, asalarichilik, kabi tez sur’atlarda ravnaq topayotgan sohalar uchun **ichki kasblar** bo‘yicha malakali kadrlar tayyorlashni maqsad qiladi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi globallashib borayotgan jamiyatda yashayotgan ekanmiz, har sohada zamonaviy texnologiyalardan foydalanish davr talabidir. Bu jarayonda kommunikativ vositalar, ko’rgazmalilik, zamonaviy texnologiya turlari, usullari izchillik bilan ta’milansa, ta’limning sifati va samaradorligi ortib boraveradi. Shu bilan birgalikda chet tillarini professional ta’limda samarali o‘rgatish uchun pedagoglar ham muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatishi lozim. Bunda esa ularga albatta, bilim, ko’nikma va malaka zarur hisoblanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta’limi boshqaruvi tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo’shimcha chora-tadbirlari to‘g’risida”gi PF-5538-son Farmoni
2. Hoshimov O’.H, Yokubov I.YA. Ingliz tili o’qitish metodikasi. –Toshkent 2003.

<sup>30</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to‘g’risida.

[https://nsp.gov.uz/static/uploads/papers\\_filecbfdaac5-e740-4f9b-a52b-30c554e92fbe.pdf](https://nsp.gov.uz/static/uploads/papers_filecbfdaac5-e740-4f9b-a52b-30c554e92fbe.pdf)

3. Otaboyeva M. P. Chet tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish va uning samaradorligi 2017. —No 4.2 (138.2).
4. Tokhirov A.I. "WRITING CONTROL PROGRAMS FOR COMPUTER NUMERAL CONTROL MACHINES" // Universum: технические науки: электрон. научн. журн. 2021. 5(86).
5. Tokhirov A.I. "APPLICATION PROCEDURE CAD/CAM/CAE - SYSTEMS IN SCIENTIFIC RESEARCH" // Universum: технические науки: электрон. научн. журн. 2021. 6(87).
6. Tokhirov A.I. "USING THE GRAPHICAL EDITOR "КОМПАС 3D" in teaching computer engineering graphics" // Universum: технические науки: электрон. научн. журн. 2021. 7(88).



**"Innovations in Science and Technologies"**